

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI**

**SOG'LIQNI SAQLASH SOHASINI KOMPLEKS RIVOJLANTIRISHGA DOIR QO'SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR
TO'G'RISIDA**

Sog'liqni saqlash tizimida davlat boshqaruvini takomillashtirish, birlamchi bo'g'inni kasalliklarni erta aniqlaydigan va davolaydigan tizimga aylantirish, raqamlashtirish ishlarini jadallashtirish, coha rivojlanishining yaqin va uzoq muddatli istiqbollarini belgilash, tibbiy xizmatlar hajmini oshirish va sifatini tubdan yaxshilash, raqobat va xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash, tibbiyot xodimlarining bilimini oshirish, ta'lif va ilm-fanni rivojlantirish maqsadida:

1. Vazirlar Mahkamasi hamda Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining Sog'liqni saqlash vazirligi rahbariyatining asosiy faoliyat yo'nalishlarini belgilash va quyidagi yangi boshqaruva tizimini joriy etish to'g'risidagi takliflari ma'qullansin:

a) sog'liqni saqlash vaziri A.M. Xadjibayev:

vazirlilik tizimi va idoraviy mansub tashkilotlar faoliyatiga umumiyoq rahbarlik qiladi, ular ishini samarali tashkil etishini ta'minlaydi, yuklatilgan vazifalar va funksiyalar to'liq bajarilishi uchun shaxsan javob beradi, mazkur tashkilotlar bilan bog'liq masalalar bo'yicha qarorlar qabul qiladi;

shoshilinch tibbiy yordam, respublika tibbiyot (respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlaridan tashqari) hamda tibbiy ta'lif muassasalari faoliyatini tashkil etadi, rahbarlari faoliyatini baholaydi, lavozimga tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi, ular uchun jihoz, dori va tibbiyot vositalari sotib olish bo'yicha tenderlar o'tkazish vakolatlarini, tizimda korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan barcha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

b) sog'liqni saqlash vazirining birinchi o'rnbosari A.Sh. Inoyatov:

oilaviy shifokor punkti, oilaviy poliklinika, tuman (shahar) ko'p tarmoqli markaziy poliklinika va shifoxonasida (keyingi o'rnlarda — birlamchi tibbiy-sanitariya muassasalari) tibbiy xizmatlarni ko'rsatishga va sifatiga, ularni jihozlashga hamda tibbiyot xodimlarining bilim va malakasini oshirishga shaxsan mas'ul hisoblanadi;

birlamchi tibbiy-sanitariya muassasalarida shtatlar normativi, shifokorlar va o'rta tibbiyot xodimlariga malaka talablari, jihozlash standartlarini hamda davolash protokollarini tasdiqlaydi, shartnomalarni imzolaydi, ular rahbarlari faoliyatini baholaydi, nomzodlarni beradi, lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod etish bo'yicha ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan takliflar kiritadi, ushbu muassasalar uchun jihoz, dori va tibbiyot vositalari sotib olish bo'yicha tenderlar o'tkazish vakolatlarini amalga oshiradi, ushbu muassasalar faoliyatiga oid qarorlar qabul qiladi;

v) sog'liqni saqlash vazirining o'rnbosari A.A. Azizov:

tibbiyot sohasida raqamlashtirish, moliyalashtirish, davlat-xususiy sheriklikni joriy qilish va rivojlantirishga shaxsan mas'ul hisoblanadi hamda mazkur masalalar bo'yicha qarorlar qabul qiladi;

yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun tenderlar o'tkazadi, shartnomalar imzolaydi, raqamlashtirish, moliyalashtirish, davlat-xususiy sheriklik masalalari bo'yicha davlat tibbiyot muassasalari rahbarlariga nomzodlarni beradi, lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod etish bo'yicha ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan takliflar kiritadi, xalqaro moliya tashkilotlari bilan ishslash masalalari bo'yicha mustaqil qarorlar qabul qiladi;

g) sog'liqni saqlash vazirining o'rnbosari U.Y. Sobirov:

respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari (keyingi o'rnlarda — respublika ixtisoslashtirilgan markazlari) va ko'p tarmoqli viloyat shifoxonalarini isloq qilish, ularni birlamchi tibbiy-sanitariya muassasalari bilan bog'lash hamda joylarda ishslash tizimini yo'nga qo'yish bo'yicha shaxsan mas'ul hisoblanadi;

respublika ixtisoslashtirilgan markazlari va ularning filiallari rahbarlariga nomzodlarni berish, rahbarlarni lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod etish bo'yicha ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan takliflar kiritish, ularni jihozlash bo'yicha loyihamalar ishlab chiqish, tenderlar o'tkazish va shartnomalar tuzish, ushbu markazlarga budget mablag'lari va bepul davolanishga orderlarni taqsimlash, shuningdek, davolash protokollarini tasdiqlash vakolatlarini amalga oshiradi;

d) sog'liqni saqlash vazirining o'rnbosari E.I. Basitxanova:

onalar va bolalarni xavf guruhlariga ajratib, ular bilan manzilli ishslashni tashkil etish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirishga shaxsan mas'ul hisoblanadi;

onalik va bolalik masalalarida xalqaro tashkilotlar grantlarini jalb qilish, mablag'larni taqsimlash, mahalliy ijro etuvchi organlar, mahalla, yoshlar, sport va ta'lif sohalaridagi davlat organlarining sog'lom turmush tarzi bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtirib borish vakolatini amalga oshiradi.

Sog'liqni saqlash vazirligi (A. Xadjibayev) bir oy muddatda mazkur bandda ko'rsatilgan asosiy yo'nalishlar hamda joriy etilayotgan yangi boshqaruva tizimidan kelib chiqib:

sog'liqni saqlash vaziri o'rnbosarlarining aniq vazifalari va funksiyalari taqsimotini;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari bilan birgalikda hududiy sog'liqni saqlash organlarining aniq vazifalari va funksiyalari taqsimotini tasdiqlas;

vazirlik markaziy apparatida investitsiyadan keyingi davrni monitoring qilish uchun amaldagi shtatlar soni doirasida mas'ul bo'lgan tarkibiy bo'linma tashkil etsin.

2. 2021-yil 15-iyundan boshlab birlamchi tibbiy-sanitariya muassasalarida dori va tibbiy buyumlar uchun biriktirilgan aholi jon boshiga ajratilgan mablag' miqdori o'rtacha 3 baravarga oshirilsin.

Oldingi tahririga qarang.

Moliya vazirligi (T. Ishmetov) ushbu maqsad uchun 2021-yil investitsiya loyihamalarini maqbullashtirish hisobidan 40 milliard so'm miqdorida mablag' ajratsin hamda ushbu bandda nazarda tutilgan xarajatlar uchun zarur mablag'larni 2022-yildan boshlab Davlat budjeti parametrlarida ko'zda tutsin.

(2-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-fevraldagagi PF-78-soni Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 24.02.2022-y, 06/22/78/0163-son)

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi (I. Norqulov, A. Boboyev), Sog'liqni saqlash vazirligi (A.

Xadjibayev) bilan birgalikda bir hafta muddatda tibbiyot sohasida investitsiya loyihamalarini maqbullashtirish hisobiga har bir viloyat kesimida iqtisod qilinadigan mablag'larni aniqlasini.

3. Sog'liqni saqlash vazirligi (A. Xadjibayev, A. Inoyatov):

a) Davlat boshqaruvi akademiyasi (A. Bekmurodov) bilan birgalikda ilg'or xorijiy tajriba asosida tibbiyot sohasida boshqaruv bo'yicha ikki haftalik o'quv kurslarini tashkil etsin va yil yakuniga qadar viloyat, tuman (shahar) tibbiyot boshqarmalari boshliqlarining o'qitilishini ta'minlasin.

Bunda, o'quv kurslarini tashkil etish bilan bog'liq xarajatlar Tibbiyot tashkilotlarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi;

b) Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi (A. Xasanov) bilan birgalikda bir oy muddatda barcha sog'liqni saqlash tizimi tashkilotlari rahbarlari faoliyatini baholash reytingini joriy etsin hamda har chorakda natijalarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasiga kiritib borsin;

v) Moliya vazirligi (T. Ishmetov), Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi (I. Norqulov) hamda Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi (F. Sharipov) bilan birgalikda bir oy muddatda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tavsiyalaridan kelib chiqib, birlamchi bo'g'inda tibbiy yordamning kafolatlangan hajmlari ro'yxatini tasdiqlab, barcha hududlarda amaliyotga kiritsin.

4. "O'zavtosanoat" AJ (Sh. Umurzakov) 2021-yil 1-oktabrga qadar joylarda, aynilsa olis va chekka hududlarda aholini manzilli profilaktika va skrining qilish ishlarini tashkil etish uchun zarur uskunalar bilan jihozlangan maxsus avtobuslarning kamida 3 ta tajriba namunasini yaratsin va kiritsin.

5. Belgilab qo'yilsinki, 2021-yil 1-iyundan boshlab:

a) Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, viloyatlar sog'liqni saqlash boshqarmalari va Toshkent shahar sog'liqni saqlash bosh boshqarmasi tuzilmalariga amaldagi shtat birliklari doirasida boshliqning raqamlashtirish va davlat-xususiy sheriklik bo'yicha o'rribosari lavozimi joriy qilinadi. Bunda, ushu lavozimlarga tayinlanayotgan shaxslarning avvalgi davlat tashkilotlaridagi ish joyi bo'yicha oylik ish haqi miqdori yuqori bo'lgan taqdirda, ularning avvalgi ish joyi bo'yicha oylik ish haqi miqdori saqlab qolinadi.

Raqamlashtirish va davlat-xususiy sheriklik bo'yicha o'rribosari o'z faoliyatida bevosita sog'liqni saqlash vaziri o'rribosari A. Azizovga bo'yusunadi va hisobdor bo'ladi hamda A. Azizov Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, viloyatlar sog'liqni saqlash boshqarmalari va Toshkent shahar sog'liqni saqlash bosh boshqarmasi faoliyatining raqamlashtirish natijadorligi bo'yicha mas'ul hisoblanadi, ularning ishiga baho beradi;

b) har bir oilaviy shifokor punkti, oilaviy poliklinika hamda tuman (shahar) ko'p tarmoqli markaziy poliklinikasida elektron tizim bilan ishlaydigan bir nafardan IT operator — hamshira lavozimi kiritiladi. Bunda, ushu lavozimlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-maydagi "Sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish va tibbiyot xodimlarining salohiyatini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish to'g'risida"gi PF-6221-ton **Farmoniga** muvofiq ajratilayotgan shtat birliklari saqlash bilan bog'liq xarajatlar 2021-yil davlat budjeti parametrlarida koronavirus pandemiyasiga qarshi kurashish va vaksina sotib olish uchun ko'zda tutilgan mablag'lar hisobidan qoplanadi, 2022-yildan boshlab esa davlat budjeti parametrlarida ko'zda tutiladi;

Oldingi tahririga qarang.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-maydagi "Sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish va tibbiyot xodimlarining salohiyatini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish to'g'risida"gi PF-6221-ton **Farmoniga** muvofiq ajratilayotgan shtat birliklari saqlash bilan bog'liq xarajatlar 2021-yil davlat budjeti parametrlarida koronavirus pandemiyasiga qarshi kurashish va vaksina sotib olish uchun ko'zda tutilgan mablag'lar hisobidan qoplanadi, 2022-yildan boshlab esa davlat budjeti parametrlarida ko'zda tutiladi;

(5-bandining "b" kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-iyuldagagi PQ-5199-tonli qaroriga asosan xatboshi bilan to'dirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.07.2021-y., 07/21/5199/0721-ton)

v) boshqa tuman (shahar) hamda barcha viloyat va respublika davolash-profilaktika muassasalarida ularning amaldagi shtat birliklari doirasida IT operator — hamshira lavozimi kiritiladi.

6. Bosh vazir maslahatchisi O.M. Umarov, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (Sh. Sadikov), Sog'liqni saqlash vazirligi (A. Azizov):

ikki hafta muddatda IT operator — hamshiralalar hamda boshqa sog'liqni saqlash tizimi xodimlarining kompyuter savodxonligini oshirish maqsadida ularni o'qitish bo'yicha dastur ishlab chiqsin;

reja-jadvalga asosan IT operator — hamshiralalar hamda boshqa sog'liqni saqlash tizimi xodimlarining kompyuter savodxonligini oshirish maqsadida ularni tuman (shahar) IT markazlarida bepul o'qitish mashg'ulotlarini tashkil etsin.

7. Sog'liqni saqlash vazirligi (A. Azizov) Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (O. Pekos), boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2021-yil 1-sentabrga qadar sohada katta tajribaga ega bo'lgan mahalliy va xorijiy mutaxassislar hamda tashkilotlarni jalb etgan holda Sog'liqni saqlash sohasini 2025-yilgacha raqamlashtirish (E-health-2025) strategiyasini va uni amalga oshirishga doir yillar bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni tasdiqlashni nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

8. Davlat tibbiyot muassasalarini 2021 — 2023-yillarda zamonaviy kompyuter jihozlari bilan ta'minlash reja-jadvali **1-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

Moliya vazirligi (T. Ishmetov) 2021-yil yakuniga qadar 17 400 ta zamonaviy kompyuter jihozlarini xarid qilish bilan bog'liq mablag'lar xalqaro moliya institutlari mablag'lari hisobidan, yetmagan qismi esa har yili Davlat budjetida Sog'liqni saqlash vazirligi uchun ko'zda tutilgan mablag'lar doirasida amalga oshirilishini nazarda tutsin.

Oldingi tahririga qarang.

Sog'liqni saqlash vaziri o'rribosari (A. Azizov)ga tizimni raqamlashtirish uchun zamonaviy kompyuter va axborot texnika vositalarini eng yaxshi takliflarni tanlab olish yo'lli bilan xarid qilishga, istisno tariqasida, ruxsat berilsin.

(8-bandning uchinchi xatboshi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-sentabrdagi PF-6311-tonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 10.09.2021-y., 06/21/6311/0861-ton)

9. Belgilab qo'yilsinki:

Sog'liqni saqlash vazirligida markazlashgan xaridlar natijasida iqtisod qilingan budget mablag'lari tibbiyot sohasini raqamlashtirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish va kengaytirish, IT-sohasidagi yetakchi mahalliy va xorijiy mutaxassislar hamda kompaniyalarini jalb qilishga yo'naltiriladi;

Sog'liqni saqlash vazirligi tizimini isloh qilishga ajratiladigan xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliyaviy tashkilotlari mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalarda tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni davlat xarid komissiyasi tarkibi Vazirlar Mahkamasiga tomonidan tasdiqlanadi.

10. 2021-yil 1-iyuldan boshlab tuman (shahar) tibbiyot birlashmalarida kompyuter jihozlari bo'yicha texnik xodim lavozimlari kompyuter texnikasi xizmati bo'yicha muhandis lavozimlariga almashtirilsin hamda ular zimmasiga zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini joriy qilish hamda rivojlantirish vazifalari yuklansin.

Bunda, kompyuter texnikasi xizmati bo'yicha muhandislarga beriladigan har oylik ustama miqdori xodim lavozim maoshidan 100 foizdan kam bo'limgan miqdorda belgilanadi.

11. Sog'liqni saqlash vazirligi Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda davlat tibbiy sug'urtasi tizimi joriy etilishini tezlashtirish maqsadida 2021-yil 1-avgustdan boshlab boshqa hududlarda ham bosqichma-bosqich quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirsin:

tibbiy jihozlar, buyumlar, kompyuter texnikasi va boshqa vositalarni xatlovdan o'tkazish, shuningdek, tibbiy xodimlar ro'yxatini shakllantirish;

tibbiyot muassasalarini kafolatlangan paketga kiritilgan tibbiy xizmatlarni ko'rsatish uchun zarur bo'ladigan tibbiy texnika bilan jihozlash;

oilaviy shifokor yo'llanmasi asosida kafolatlangan paketga kiritilgan bepul tibbiy xizmatlar ko'rsatish tizimini tashkil etish.

Bosh vazir o'rnbosari B.A. Musayev, Moliya vazirligi (T. Ishmetov) va Sog'liqni saqlash vazirligi (A. Azizov) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda bir oy muddatda tibbiy sug'urta tizimining alohida elementlarini boshqa hududlarda joriy qilishni boshlash yuzasidan aniq taklif kirtsin.

12. Belgilansinki, 2021-yil 1-iyuldan boshlab ish staji besh yil bo'limgan oliv ma'lumotli tibbiyot xodimlarini nodavlat tibbiyot tashkilotlariga ishga qabul qilish bilan bog'liq talablar davlat tibbiyot muassasalariga tenglashtiriladi.

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati (B. Yusupaliyev) bir oy muddatda nodavlat tibbiyot tashkilotlari faoliyatini tashkil etishda bino va inshootlarga belgilangan sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlarini xalqaro standartlardan kelib chiqib, qayta ko'rib chiqsin.

13. 2021-2022-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari filiallarini tashkil etish reja-jadvali [2-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

Belgilansinki:

a) yangi tashkil qilinayotgan filiallar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar tibbiyot muassasalarining negizida, ularning amaldagi shtat birliklari va ajratilgan mablag'lar doirasida, shuningdek, yuridik shaxs maqomga ega bo'limgan asosda tashkil qilinadi;

b) sog'liqni saqlash vaziri o'rnbosari U. Sobirov va respublika ixtisoslashtirilgan markazlari rahbarlari filiallar tomonidan:

kasalliklarni joylarda barvaqt aniqlash, profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish, mahorat darslarini o'tkazish;

diagnostika va davolashning zamonaviy usullarini joriy etish, yuqori sifatli tibbiy xizmatlarni ko'rsatish, shu jumladan teletibbiyotni joriy etish va rivojlantirish;

kasalliklar registrini yaratish, ilmiy tadbiqotlarni olib borish va amaliyotga tatbiq etish, shuningdek, ular faoliyatiga oid boshqa masalalarni (tibbiy jihozlar va asbob-uskunalar bilan ta'minlash, malakali mutaxassislar bilan to'ldirish) hal qilish yuzasidan shaxsan mas'ul hisoblanadi.

14. Sog'liqni saqlash vazirligi (E. Basitxanova):

a) 2021-yil 1-avgustdan boshlab Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida perinatal va skrining markazlari hamda birlamchi tibbiy-sanitariya muassasalaridagi onalar va bolalar salomatligiga mas'ul tuzilmalar ("Ayollar maslahatxonasi", prenatal skrining xonasi, "tibbiyot brigadalari" tarkibidagi oilaviy shifokor, pediatr va boshqalar)ning homilador ayolni kompleks kuzatuvi bo'yicha quyidagi chora-tadbirlarni nazarda tutuvchi o'zaro hamkorlik va muvofiqlashtirilishini ta'minlovchi yagona tizimni joriy etsin:

homilador ayolning kompleks kuzatuvi yagona ma'lumotlar bazasini yaratish;

perinatal va skrining markazlari hamda birlamchi tibbiy-sanitariya muassasalaridagi onalar va bolalar salomatligiga mas'ul tuzilmalar tomonidan yagona ma'lumotlar bazasiga zarur ma'lumotlarni kiritish, shuningdek, homilador ayollarning tibbiy kartasini yuritish;

shakllangan ma'lumotlarga asosan homilador ayollarga zarur maslahatlarni berish;

b) sog'liqni saqlash vazirining o'rnbosari A. Azizov bilan birgalikda homilador ayolni eng erta muddatlarda hisobga olinishi, uning har kungi holatidagi o'zgarishlarni kompleks nazorat qilib borish uchun 2021-yil yakuniga qadar yagona elektron baza yaratilishini ta'minlasin;

v) Maktabgacha ta'lif vazirligi (A. Shin) va Xalq ta'lifi vazirligi (Sh. Shermatov) bilan birgalikda ikki oy muddatda maktabgacha ta'lif tashkilotlari va maktablarda to'g'ri ovqatlanishni yo'nga qo'yish maqsadida 2021/2022 o'quv yilidan boshlab yangilangan ovqatlanish ratsionini hamda ushbu yo'nalish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlariga bo'lgan talablarni tasdiqlasin va amaliyotga kirtsin. Bunda, bolalarning sog'lig'iga zarar va rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan barcha oziq-ovqat mahsulotlarini maktabgacha ta'lif tashkilotlari va maktablar hududida sotishga cheklar qo'yilsin.

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati (B. Yusupaliyev) maktabgacha ta'lif tashkilotlari va maktablarda bolalarning sog'lom va xavfsiz ovqatlanishini ta'minlash maqsadida belgilangan sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga so'zsiz rioya etilishi ustidan nazoratni kuchaytirsin.

15. Moliya vazirligi (T. Ishmetov):

onalar va bolalar, reproduktiv yoshdag'i ayollar salomatligini ta'minlash uchun zarur dori va tibbiyot vositalari ("K" vitamin, surfaktant va boshqalar) bilan qo'shimcha ta'minlash uchun Davlat budgetidan 2021-yilda 26 milliard so'm ajratsin, 2022-yildan boshlab mazkur banddagi xarajatlar uchun zarur mablag'larni Davlat budgeti parametrlarida ko'zda tutsin;

bolalar tibbiyot va tug'uruq muassasalarida yuqori texnologik laborator uskunalaridan to'laqonli va samarali foydalanish maqsadida 2022-yildan boshlab Davlat budgetidan reaktiv, reagentlar, sarflov anjomlari hamda servis xizmatlar uchun qo'shimcha 8 milliard so'm ajratsin.

16. Sog'liqni saqlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni tezlashtirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" [3-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

17. Sog'liqni saqlash vazirligining O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasini xalqaro ekspertlar va tashkilotlar bilan birlgilikda ishlab chiqish to'g'risidagi taklifi qabul qilinsin.

Vazirlar Mahkamasi, Moliya vazirligi Sog'liqni saqlash vazirligining asoslantirilgan buyurtmalariga ko'ra Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg'armasi mablag'lari hisobidan "Sog'liqni saqlash strategiyasi — 2030"ni ishlab chiqish, xorijiy va mahalliy ekspertlar hamda tashkilotlarni jalb qilish bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirish choralarini ko'rsin.

Oldingi tahririga qarang.

17¹. Sog'liqni saqlash vaziriga ushbu qarorga muvofiq sog'liqni saqlash vaziri o'rinosarlari o'rtasida taqsimlangan vazifalar va funksiyalarni, zarur hollarda qayta taqsimlash huquqi berilsin.

(17¹-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-apreldagi PQ-216-sonli qaroriga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.04.2022-y, 07/22/216/0343-son)

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisining birinchi o'rinosari L.N. To'ychiyev Sog'liqni saqlash vazirligi (A. Xadjibayev), Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi (A. Xasanov) bilan birlgilikda bir oy muddatda sog'liqni saqlash vaziri o'rinosarlari, hududiy sog'liqni saqlash boshqarmalari boshliqlari faoliyatini baholash tizimini joriy etsin hamda har yarim yil bilan tegishli takliflarni kiritib borsin.

Bunda, natija ko'rsatgan, xizmat sifatini yaxshilab, aholini rozi qilgan rahbarlarni tegishli Sog'liqni saqlash vazirligi tizimi tashkilotlari mablag'lari hisobidan rag'batlantirish hamda ishlarni qoniqarsiz tashkil etgan mas'ul kadrlarga chora ko'rish belgilansin.

19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar **4-ilovaga** muvofiq kiritilsin.

20. Sog'liqni saqlash vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birlgilikda ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kirtsin.

21. Ushbu qarorning ijrosini samarali tashkil etishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib sog'liqni saqlash vaziri A.M. Xadjibayev, uning o'rinosarlari A.Sh. Inoyatov, A.A. Azizov, U.Y. Sobirov, E.I. Basitxanova, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari belgilansin.

22. Mazkur qarorning o'z vaqtida va natijali ijob etilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinosari B.A. Musayev va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisining birinchi o'rinosari L.N. To'ychiyev zimmasiga yuklansin.

Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi yuzasidan har chorakda O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga axborot berib borilsin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2021-yil 25-may,
PQ-5124-son

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
2021-yil 25-maydag'i PQ-5124-son qaroriga
1-ILOVA

Davlat tibbiyot muassasalarini 2021 — 2023-yillarda zamonaviy kompyuter jihozlari bilan ta'minlash

REJA-JADVALI

Fazalar	Muddat	Kompyuter jihozlari soni	Oluvchilar
1-faza	2021-yil	17 400 ta	Oilaviy shifokor punktlari, oilaviy poliklinikalar va tuman (shahar) ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalar
2-faza	2022-yil	16 100 ta	Davolash-profilaktika muassasalari va tuman (shahar) shifoxonalari
3-faza	2023-yil	12 400 ta	Viloyat va respublika shifoxonalari
Jami			45 900

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
2021-yil 25-maydag'i PQ-5124-son qaroriga
2-ILOVA

**2021-2022-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida respublika
ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari filiallarini tashkil etish**

REJA-JADVALI

T/r	Markazlar nomi	Qoraqalpog'iston respublikasi	Andijon viloyati	Buxoro viloyati	Jizzax viloyati	Qashqadaryo viloyati	Navoiy viloyati	Namangan viloyati	Samarqand viloyati	Surxondaryo viloyati	Sirdaryo viloyati	Toshkent viloyati	Farg'onan viloyati	Xo'viloyati
1.	Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi	1					1					1		1
2.	Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi			1									1	
3.	Respublika ixtisoslashtirilgan terapiya va tibbiy reabilitatsiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi							1						

4.	Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi		1	1	1	1	1				1		1
5.	Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi		1					1	1	1			
6.	Respublika ixtisoslashtirilgan neyroxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi	1	1		1	1	1	1			1	1	
7.	Respublika ko'z mikroxirurgiyasi ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazi		1		1	1	1	1	1		1	1	1
8.	Respublika allergologiya ilmiy-ixtisoslashtirilgan markazi		1					1	1				
9.	Respublika ixtisoslashtirilgan nefrologiya va buyrak transplantatsiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi	1	1		1	1	1	1	1	1	1	1	1
10.	Respublika ixtisoslashtirilgan urologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi	1	1		1	1	1	1	1		1	1	1
11.	Respublika ixtisoslashtirilgan narkologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi	1	1	1	1	1	1	1	1		1	1	1
12.	Respublika ixtisoslashtirilgan gemitologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi		1		1	1	1	1	1		1	1	1
Jami		5	9	3	7	7	11	8	6	1	8	7	7

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
2021-yil 25-maydagi PQ-5124-son qaroriga
3-ILOVA

Sog'liqni saqlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni tezlashtirish bo'yicha

"YO'L XARITASI"

Oldingi tahririga qarang.

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul tashkilotlar
I. Sog'liqni saqlash tizimini tashkillashtirish				
(A. Xadjibayev)				
1.	Oliy tibbiy ta'lif muassasalarida budjetdan tashqari hamda xalqaro moliya tashkilotlarining mablag'lari hisobidan o'quv-simulatsion markazlarni zamonaviy o'quv-amaliy jihozlar bilan ta'minlash.	1. Oliy tibbiy ta'lif muassasalaridagi o'quv-simulatsion markazlarni inventarizatsiyadan o'tkazish hamda qo'shimcha jihozlash ehtiyojini aniqlash. 2. Oliy tibbiy ta'lif muassasalarining to'lov-kontrakt asosida tushadigan mablag'lari, budjetdan tashqari hamda xalqaro moliya tashkilotlarining mablag'lari hisobidan o'quv-simulatsion markazlarini zamonaviy o'quv-amaliy jihozlar bilan ta'minlash bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish. 3. O'quv-simulatsion markazlarini zamonaviy o'quv-amaliy jihozlar bilan ta'minlash.	2021-yil sentyabr	Sog'liqni saqlash vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi
2.	Oliy tibbiy ta'lif muassasalaridagi eksperimental laboratoriylar faoliyatini takomillashtirish va moddiy-teknika bazasini mustahkamlash.	Oliy tibbiy ta'lif muassasalaridagi eksperimental laboratoriylar moddiy-teknika bazasini oliy ta'lif muassasalarining to'lov-kontrakt asosida tushadigan mablag'lari, budjetdan tashqari hamda xalqaro moliya institutlari mablag'lari hisobidan mustahkamlash.	2021-yil sentyabr	Sog'liqni saqlash vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi

3.	Oliy tibbiy ta'lif muassasalarining klinik kafedralarini respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amalii tibbiyot markazlari bazasida joylashtirish.	1. Oliy tibbiy ta'lif muassasalarining klinik kafedralarini respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amalii tibbiyot markazlari bazasida joylashtirish. 2. Kafedralarni zarur jihozlar, mebel, inventarlar hamda samarali ish olib borishi uchun boshqa kerakli moddiy-teknika vositalari, metodik materiallar bilan ta'minlash. 3. Kafederalarni yuqori malakali va tajribali mutaxassislar bilan to'ldirish.	2021-yil sentyabr	Sog'liqni saqlash vazirligi
4.	Sog'liqni saqlash tizimidagi har bir rahbarlik lavozimini bugungi islohotni tushunadigan, malakali, faol va o'zgarish qilishga qodir bo'lgan kadrlar bilan ta'minlash.	1. Sog'liqni saqlash tizimidagi rahbar kadrlar ro'yxatlarini shakllantirish. 2. Sog'liqni saqlash tizimidagi rahbar kadrlar zaxirasini shakllantirish. 3. Rahbarlik lavozimini bugungi islohotni tushunadigan, malakali, faol va o'zgarish qilishga qodir bo'lgan malakali kadrlar bilan ta'minlash choralarini ko'rish.	2021-yil avgust	Vazirlar Mahkamasi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi
5.	Kadrlarni tayyorlash va qayta o'qitish yo'nalishlariga yangicha yondashuvni joriy etish maqsadida respublikada faoliyat yuritayotgan 11 ta tibbiyot oliygochlari hamda Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazini transformatsiya qilish bo'yicha aniq choralarini ko'rish.	1. Oliy tibbiy ta'lif muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha tegishli normativ-huquqiy hujjat loyihamonlari ishlab chiqish va kiritish. 2. Toshkent tibbiyot akademiyasida ilg'or xorijiy tajriba asosida, tibbiyot sohasida boshqaruvchilar hamda yuqori texnologik uskunalar bilan ishlaydigan mutaxassislar tayyorlash bo'yicha yangi yo'nalishlarni tashkil etish. 3. Iqtidorli va malakali tibbiyot mutaxassislarini qo'llab-quvvatlash hamda tibbiyot muassasalariga jalb qilish jamg'armasi mablag'lari hisobidan ordinatura va magistraturada o'qiyotgan 30 nafar iqtidorli yoshlarni nufuzli xorijiy tibbiyot markazlarida malaka oshirishga yuborish choralarini ko'rish. 4. Toshkent tibbiyot akademiyasiga Yevropa va boshqa rivojlangan davlatlardan professor-o'qituvchilarni jalb qilish.	2021-yil iyul 2021-2022-yillar davomida	Sog'liqni saqlash vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi, Ta'lif sifatini nazorat qilish inspeksiysi, Toshkent tibbiyot akademiyasi
6.	Xorijiy davlatlarda faoliyat olib borayotgan 500 nafar vatandoshlarni O'zbekistonga qaytarish choralarini ko'rish.	1. Xorijiy davlatlarda faoliyat olib borayotgan vatandoshlar ro'yxatini shakllantirish. 2. Ularni O'zbekistonga qaytarish choralarini ko'rish. 3. Vatandoshlarni uy-joy bilan ta'minlash va zarur shart-sharoitlar yaratish, ijtimoiy hamda moddiy qo'llab-quvvatlash choralarini ko'rish.	2021-2022-yillar davomida	Sog'liqni saqlash vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari

II. Birlamchi tibbiy-sanitariya muassasalari faoliyatini tashkillashtirish**(A. Inoyatov)**

7.	Issiq suv bilan ta'minlash maqsadida har bir oilaviy shifokor punktlari va oilaviy poliklinikalarini quyosh kollektorlari bilan jihozlash.	1. Har bir oilaviy shifokor punkti va oilaviy poliklinikalarini inventarizatsiyadan o'tkazish va ehtiyojni aniqlash. 2. Har bir oilaviy shifokor punkti va oilaviy poliklinikalarini quyosh kollektorlari bilan jihozlash reja-grafiklari va dasturlarni ishlab chiqish hamda tasdiqlash. 3. Oilaviy shifokor punkti va oilaviy poliklinikalarini quyosh kollektorlari bilan jihozlash.	2021-yil oktyabr	Sog'liqni saqlash vazirligi, Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
8.	Har bir oilaviy shifokor punktlari va oilaviy poliklinikalarini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash.	1. Har bir oilaviy shifokor punkti va oilaviy poliklinikalarini inventarizatsiyadan o'tkazish va toza ichimlik suviga bo'lgan ehtiyojni aniqlash. 2. Oilaviy shifokor punkti va oilaviy poliklinikalarini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash reja-grafiklari va dasturlarni ishlab chiqish hamda tasdiqlash. 3. Oilaviy shifokor punkti va oilaviy poliklinikalarini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash.	2021-2022-yillar davomida	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Sog'liqni saqlash vazirligi, Moliya vazirligi
9.	"Tibbiyot brigadalari"ga biriktirilgan 50 ming o'rta tibbiyot xodimlarining Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tavsiyalari asosida malaka oshirishini ta'minlash.	1. O'rta tibbiyot xodimlarini malaka oshirish reja-jadvalini tasdiqlash. 2. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti bilan hamkorlik o'rnatish. 3. Reja-jadvalga asosan o'rta tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish.	2021-yil yakuniga qadar	Sog'liqni saqlash vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari

10.	Sog'liqni saqlashning birlamchi bo'g'inida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini, aholi salomatligini ta'minlash bilan bog'liq tadbirlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritish ishlarini tashkil etish.	Birlamchi tibbiy-sanitariya muassasalari tomonidan tibbiy xizmatlarni ko'rsatish, tibbiy profilaktika va patronajni tashkil etish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish borasida olib borilayotgan ishlar bo'yicha media-reja ishlab chiqish va ijrosini ta'minlash.	2021-yil iyul	Sog'liqni saqlash vazirligi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi
III. Tibbiyot sohasida raqamlashtirish, moliyalashtirish, davlat-xususiy sheriklikni joriy qilish va rivojlantirish				
(A. Azizov)				
11.	Sog'liqni saqlash sohasini raqamlashtirish ishlarini jadallashtirish va sifatini oshirish.	Sog'liqni saqlash sohasini raqamlashtirish ishlarini jadallashtirish va sifatini oshirish maqsadida xalqaro moliya institutlari va tashkilotlarining mablag'larini jalb etish ♦o'yicha taklif tayyorlash va Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2021-yil oktyabr	Sog'liqni saqlash vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Moliya vazirligi
12.	Germaniyaning "KFW" bankining 45 million yevro miqdoridagi imtiyozi kreditlarini jalb etish choralarini ko'rish.	Germaniyaning "KFW" bankining 45 million yevro miqdoridagi imtiyozi kreditlarini jalb etish bo'yicha Hukumat qarori loyihasini tayyorlash va o'rnatilgan tartibda kiritish.	2022-yil 1-aprel	Sog'liqni saqlash vazirligi, Moliya vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi
13.	Nodavlat tibbiyot tashkilotlari tomonidan "Elektron sog'liqni saqlash" axborot tizimi yagona kompleksi doirasida faoliyatlarini yuzasidan tibbiy hisobot shakllari bo'yicha har chorakda elektron hisobot taqdim etish mexanizmini joriy qilish.	<p>1. Davlat va nodavlat tibbiyot muassasalari tomonidan elektron shaklda topshiriladigan tibbiy hisobot shakllari va tartibini ishlab chiqish.</p> <p>2. "Elektron sog'liqni saqlash" axborot tizimi yagona kompleksi doirasida tibbiy hisobot shakllari bo'yicha hisobotlarni qabul qiluvchi axborot tizimini joriy qilish.</p> <p>3. Barcha davlat va nodavlat tibbiyot muassasalariga tibbiy hisobot shakllari bo'yicha hisobotlarni qabul qiluvchi axborot tizimiga ulanish uchun imkoniyat yaratish.</p> <p>4. Tibbiy hisobot shakllari bo'yicha hisobotlarni qabul qiluvchi axborot tizimini joriy qilish va keyingi kuzatuvini ta'minlash va rivojlantirish uchun ajratilgan budget mablag'lari, Sog'liqni saqlash vazirligining budgetdan tashqari mablag'lari, xalqaro moliya institutlarining kreditlari va grantlari, shuningdek, qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalarni yo'naltirish.</p>	2021-yil iyul 2021-yil yakuniga qadar 2022-yil 1-yanvardan boshlab	Sog'liqni saqlash vazirligi
14.	Sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihamini amalga oshirishda muddatlarni qisqartirish.	?zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-apreldagi "Sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4290-son qarori va boshqa hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish.	2021-yil iyul	Moliya vazirligi, Adliya vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi
15.	Tibbiyot muassasalarida xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari kreditlari va grantlari hisobidan olingan tibbiy uskuna va jihozlardan foydalanish samaradorligini oshirish, ularga servis xizmatlarini ko'rsatish tizimini takomillashtirish.	<p>1. Bosh vazir o'rinnbosari (B. Musayev) rahbarligida komissiya tashkil etish.</p> <p>2. Tibbiy uskuna va jihozlarni to'liq xatlovdan o'tkazish.</p> <p>3. Tibbiy uskuna va jihozlardan foydalanish samaradorligini oshirish, ularga servis xizmatlarini ko'rsatish tizimini takomillashtirish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga taklif kiritish.</p>	2021-yil avgust	Vazirlar Mahkamasiga, Sog'liqni saqlash vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi
IV. Ixtisoslashtirilgan tibbiy yorda♦ ko'rsatishni yanada rivojlantirish				
(U. Sobirov)				
16.	Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlarining 30 nafar mutaxassislarini xorijiy davlatlarda malaka oshirishini ta'minlash.	<p>1. Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlarining 30 nafar malakali va yosh mutaxassislarini xorijiy davlatlarda malaka oshirish grafiklarini shakllantirish.</p> <p>2. 30 nafar mutaxassislarni markazlarning o'z mablag'lari hisobidan xorijiy davlatlarda malaka oshirishini ta'minlash.</p>	2021-yil avgust	Sog'liqni saqlash vazirligi, respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari
17.	Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari faoliyatini isloh qilish, ularning birlamchi tibbiy-sanitariya muassasalari bilan integratsiyasini ta'minlash, ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatni quyi bo'g'inga qadar yetkazish bo'yicha yangi mexanizmni joriy etish bo'yicha takliflar tayyorlash.	<p>1. Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari faoliyatini isloh qilish, birlamchi bo'g'in tibbiyot muassasasi tartibidagi integratsiyasini ta'minlash, ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatni quyi bo'g'inga qadar yetkazish bo'yicha yangi mexanizmni joriy etish bo'yicha takliflar tayyorlash.</p> <p>2. Tibbiyot sohasi birlamchi bo'g'ini faoliyatini takomillashtirish bo'yicha taqdimot qilish.</p>	2021-yil iyul	Sog'liqni saqlash vazirligi, respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari

18.	Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyat markazlariga xorijiy davlatlardan tibbiyat boshqaruvi ekspertlarini jalb qilish choralarini ko'rish.	1. Yevropa davlatlari, Koreya, Rossiya, Turkiya singari davatlardan tibbiyat boshqaruvi ekspertlari bilan muzokaralar olib borish. 2. Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyat markazlariga Yevropa davlatlari, Koreya, Rossiya, Turkiya singari davatlardan tibbiyat boshqaruvi ekspertlarini jalb qilish choralarini ko'rish.	2021-yil yakuniga qadar	Vazirlar Mahkamasi, Sog'liqni saqlash vazirligi
19.	Tor doiradagi xizmatlar yo'lg'a qo'yiladigan hududiy tibbiyat muassasalarini angiograf, laparoskop, sun'iy qon aylantirish kabi yuqori texnologik uskunalar va tibbiyat vositalari bilan ta'minlash.	1. Hududiy tibbiyat muassasalari moddiy-texnika bazasini inventarizatsiyadan o'tkazish, yuqori texnologik uskunalar va tibbiyat vositalariga ehtiyojni aniqlash. 2. Yuqori texno?ogik uskunalar va tibbiyat vositalari bilan ta'minlashga mahalliy budget hisobidan zarur mablag'larni ajratish. 3. Yuqori texnologik uskunalar va tibbiyat vositalari bilan ta'minlash.	2021-yil iyun	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Sog'liqni saqlash vazirligi

V. Onalik va bolalikni muhofaza qilish**(E. Basitxanova)**

20.	O'smir qizlarni sog'lom onalikka tayyorlashdan boshlab, homiladorlik, irlsiy kasalliklarning oldini olish, tug'urug va undan keyingi davrgacha bo'lgan barcha jarayonlarda kompleks qamrab olish.	1. O'smir qizlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish uchun "mobil skrining brigadalari"ni tashkil etish. 2. Tez tibbiy yordam maxsus avtotransportlarni xarid qilish natijasida foydalanishdan chiqarilayotgan tez tibbiy yordam mashinalari hisobidan "mobil skrining brigadalari" avtotransport vositasi bilan ta'minlash va ularni zarur uskunalar (portativ ultratovush apparati va boshqalar) bilan jihozlash choralarini ko'rish.	2021 yil yakuniga qadar	Sog'liqni saqlash vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Sog'liqni saqlash vazirligi
21.	Umumta'limga muktabalarining oshxonalar davlat-xususiy sheriklik asosida oshxona yoki bufet qurish, ta'minlash va jihozlash, hududda oshxona faoliyati yo'lg'a qo'yilmagan maktablarda sog'lom ovqatlanishni tashkil etish, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning farzandlari (o'quvchilar) uchun imtirozli shartlarda ovqatlanishini ta'minlash, oshpazlik kasbiga ega bo'lgan hududda ishsiz bo'lgan fuqarolarni ish bilan ta'minlash.	1. Umumta'limga muktabalar oshxonalarini har bir hududdan bittadan, 2022-yildan boshlab, bosqichma-bosqich tuman (shahar)lar miqyosida yagona tanlov o'tkazish orqali davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiya va ijtimoiy majburiyatlar yuklangan holda ijara berish. 2. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan bir oy muddatda 2021-yilda yagona tanlov o'tkazish orqali davlat-xususiy sheriklik asosida umumta'limga muktabalar oshxonalarini ijara berish bo'yicha hududlardan bittadan tuman (shahar) ro'yxatini Xalq ta'limi vazirligiga taqdim etish. 3. Tadbirkorlik subyektlariga umumta'limga muktabalarining oshxonalarini ijara berish bo'yicha tanlovlarni tashkil etish va o'tkazish. 4. Oshxonasi mayjud bo'lmagan umumta'limga muktabalarida tashabbuskor tadbirkorlik subyektlari tomonidan 5 — 10 yillik muddatga ijara to'lovisiz ta'limga muassasasi rahbari bilan to'g'ridan to'g'ri shartnomaga tuzgan holda oshxona faoliyatini yuritish uchun bino va yer maydonlari ajratish. 5. Umumta'limga muktabalar oshxonalarining tadbirkorlik subyektlariga investitsiya va ijtimoiy majburiyatlar yuklangan holda 10 yil muddatgacha davlat-xususiy sheriklik asosida berish. 6. Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan ro'yxat asosida umumta'limga muktabalarining oshxonalar va bufetlarida bolalar sog'lig'iga zararli yoki foydasiz bo'lgan mahsulotlarning sotilishini taqiqlash.	2021-yil 1-sentabrdan boshlab	Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Davlat aktivlarni boshqarish agentligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari

(3-ilova O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-fevraldaggi PF-78-soni Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 24.02.2022-y., 06/22/78/0163-soni)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-maydagi PQ-5124-soni qaroriga
4-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3953-soni qarori ilovasining 17-bandni quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"17. Majburiy sug'urtalash bo'yicha hamda davlat tibbiy sug'urtasi doirasidagi xizmatlar."


2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-fevraldagagi "O'zbekiston Respublikasida gemitologiya va transfuziologiya xizmatlarini rivojlantirish hamda onkogematoqematologik va davolash qiyin bo'lgan kasalliklarga chalingan shaxslarni yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4592-soni qarori 6 va 7-bandlari hamda qarorga 1-ilovaning 4-pozitsiyasi o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-oktabrdagi "Sog'liqni saqlash sohasida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4847-soni qarori 3, 4 va 5-

ilovalarining matni quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Qoraqalpog’iston Respublikasi Sog’liqni saqlash vazirligi


TUZILMASI




Boshqaruvin xodimlarining cheklangan soni — 31 nafar.

Viloyatlar sog'liqni saqlash boshqarmalarining

NAMUNAVIY TUZILMASI



Boshqaruvin xodimlarining cheklangan soni — 26 — 32 nafar.

Toshkent shahar sog'liqni saqlash bosh boshqarmasining**TUZILMASI**

Boshqaruvin xodimlarining cheklangan soni — 32 nafar”.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-dekabrdagi “O'zbekiston Respublikasining “2021-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida”gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4938-son qaroriga [7-ilovada](#) 5-pozitsiya quyidagi tahrirda bayon etilsin:

5.	Sog'liqni saqlash sohasida axborot tizimlarini yaratish, takomillashtirish va joriy etish, shuningdek, axborot kommunikatsiya va texnologiyalari infratuzilmasini rivojlantirish	mlrd. so'm	28,0
----	--	------------	------

“.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydag'i “Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-5113-son qaroriga [2-ilovaning](#) 21 va 33-pozitsiyalari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

6. Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 25-avgustdag'i “Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 365-sonli [qarori](#):

a) quyidagi mazmundagi 2¹-band bilan to'ldirilsin:

“2¹. Ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalarda nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish bo'yicha ularga maslahat berish va tibbiy xizmat ko'rsatuvchi muassasalar faoliyatini monitoring qilib, mavjud muammolarni tahlil etish, umumlashtirish Respublika va hududiy aholi reproduktiv salomatligi markazlarining (keyingi o'rnlarda — Markazlar) asosiy vazifalaridan biri etib belgilansin.

Mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun Markazlar tuzilmasiga sog'liqni saqlash tizimi tashkilotlarining amaldagi shtatlari doirasida mutaxassis shtatlar (tibbiy-genetik, psixolog, IT-texnologiyalari bo'yicha mutaxassis) kiritilsin.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi bir oy muddatda Markazlar moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga asoslantirilgan taklif kirtsin”;

b) quyidagi mazmundagi 3¹-band bilan to'ldirilsin:

“3¹. O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Sog'liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda ikki oy muddatda FHDY organlari bilan tibbiyot muassasalari, xususan ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalar, Markazlar o'rtaida nikohlanuvchilarining yagona avtomatlashtirilgan elektron bazasini shakllantirsin”;

v) [1-ilovasida](#):

[6-band](#) quyidagi mazmundagi ikkinchi va uchinchi xatboshilar bilan to'ldirilsin:

“Nikohlanuvchi shaxslar doimiy yoki vaqtinchalik yashash joyidagi tuman (shahar) ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalarida bepul dispanserizatsiyadan, ya'ni kardiolog, endokrinolog, reumatolog, urolog mutaxassislari jalb qilingan holda nikoh oldi tibbiy ko'rikdan o'tadi hamda qo'shimcha UTT, EKG, umumiyl qon tahlili, qondagi qand miqdori aniqlanadi.

Nikohlanuvchi shaxslar uchun tibbiy ko'rik jarayonida genetik tekshiruvlarga zarurat bo'lganda, ularning o'zaro kelishuvi asosida ushbu tekshiruvlar pullik asosda amalga oshirilishi mumkin”;

[ikkinci xatboshi](#) to'rtinchi xatboshi deb hisoblansin;

31-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"31. Agar nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rnikdan o'tkazish natijasida ularning bittasida yoki har ikkalasida mazkur Nizomga 1-ilovada nazarda tutilgan kasallik, shuningdek, dispanserizatsiya natijasida boshqa kasalliklar aniqlangan taqdirda, nikohni qayd etish tomonlarning ushbu tekshirish natijalaridan xabardorligi tasdiqlanganidan keyin amalga oshiriladi".

7. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 21-iyundagi 405-son qarori bilan tasdiqlangan Tibbiy faoliyatni litsenziyalash tartibi to'g'risidagi **nizomda**:

a) 10-bandning "a" **kichik bandida**:

ikkinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"bosh shifokorda — oliy tibbiy ma'lumot, boshqa vrach-mutaxassislarda (oliy tibbiy ta'llim ma'lumotiga ega bo'limgan, xalq tabobati usullaridan foydalangan holda tibbiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxslardan tashqari) tegishli tibbiy mutaxassislik bo'yicha oliy ma'lumot";

quyidagi tahrirdagi to'rtinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

"ish staji besh yildan oshgan oliy tibbiy ma'lumotli shifokorda ixtisosligi bo'yicha malaka toifa";

to'rtinchi — o'n uchinchi xatboshilar tegishinchasi — o'n to'rtinchi xatboshilar deb hisoblansin;

b) 22-band:

quyidagi tahrirdagi ikkinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

"Qo'shimcha tibbiy ixtisoslik turini yoki nodavlat tibbiyot tashkiloti filialini litsenziyalashda uning litsenziya talablari va shartlariga muvofiqligini o'rganish faqat so'ralayotgan tibbiy ixtisoslik turi hamda tashkilot filiali qismida o'tkaziladi";

ikkinchi — sakkizinchi xatboshilar tegishli ravishda uchinchi — to'qqizinchi xatboshilar deb hisoblansin;

sakkizinchi va **to'qqizinchi xatboshilar** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"Litsenziyalovchi organning litsenziya berish, muassasa turini o'zgartirish (ambulator yoki statsionar), filial ochish, litsenziyaga yangi tibbiy ixtisosliklarni qo'shish, tibbiy xizmat hajmini o'zgartirish (konservativ yoki operativ) yoki uni berishni rad etish haqidagi qarori umumiylar tartib bo'yicha uch kun muddatda, tezlashtirilgan tartib bo'yicha bir ish kuni davomida tasdiqlanadi va litsenziya berish yoki uni berishni rad etish uchun asos hisoblanadi;

Litsenziyalovchi organ umumiylar tartib bo'yicha ikki kun muddatda, tezlashtirilgan tartib bo'yicha esa litsenziya berish, muassasa turini o'zgartirish (ambulator yoki statsionar), filial ochish, litsenziyaga yangi tibbiy ixtisosliklarni qo'shish, tibbiy xizmat hajmini o'zgartirish (konservativ yoki operativ) haqida qaror qabul qilingan kunning o'zida litsenziya talabgorini u'z arizasida ko'rsatgan shaklda, bank hisob raqami rekvizitlari va davlat bojini to'lash muddati ko'rsatilgan holda qabul qilingan qaror to'g'risida xabardor qiladi";

quyidagi tahrirdagi o'ninchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

"Muassasa turi o'zgarganda (ambulator yoki statsionar), filial ochilganda, litsenziyaga yangi tibbiy ixtisosliklar qo'shilganda, tibbiy xizmat hajmi o'zgarganda (konservativ yoki operativ) tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar mavjud litsenziyaga kiritiladi, bunda litsenziyaning amal qilish muddati o'zgarmaydi";

v) 36-band quyidagi tahrirdagi ikkinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

"Tibbiy faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziya talablari va shartlari buzilgan taqdirda, litsenziyaning amal qilishi faqat bunday buzilishlarga yo'l qo'yilgan tibbiy ixtisoslik turi qismida to'xtatiladi (tugatiladi) (amaldagi boshqa tibbiy ixtisosliklar faoliyatini ta'minlovchi ixtisoslik turlaridan tashqari) va litsenziya amaldagi boshqa tibbiy ixtisoslik turlari qismida belgilangan tartibda qayta rasmiylashtiriladi";

ikkinchi xatboshi uchinchi xatboshi deb hisoblansin.

(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 25.05.2021-y., 07/21/5124/0487-son, 29.07.2021-y., 07/21/5199/0721-son, 10.09.2021-y.,
06/21/6311/0861-son; 24.02.2022-y., 06/22/78/0163-son, 26.04.2022-y., 07/22/216/0343-son)